

ILK ZARDUSHTIYLIK BRONZA VA ILK TEMIR DAVRI MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDA REGULYATIV HAMDA INTEGRATIV ZARURAT SIFATIDA

Kushakov Safarali Yusupovich^a

Annotatsiya

Maqolada zardushtiylikning bronza va ilk temir davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi o'rni din sotsiologiyasining struktur-funksional yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Muallif zardushtiylikni faqat diniy-falsafiy ta'limot doirasida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi (regulyativ) va turli etnik hamda hududiy guruhlarini yagona mafkuraviy maydonda birlashtiruvchi (integrativ) obyektiv zarurat sifatida ko'rib chiqadi. Sintashta–Arkaim, Jarqo'ton, Dashtli, Togolok va Gonur yodgorliklarining arxeologik materiallari hamda Avesto matnlari asosida qurbonlik marosimlarining haddan ortiqcha ko'payishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy nomutanosiblik diniy me'yorlashtirish zaruratini keltirib chiqargani asoslanadi. Sh.Shaydullaev va M.Esanov taklif etgan davrlashtirish tizimlari qiyosiy tahlil qilinib, zardushtiylikning oilaviy e'tiqoddan urug'-qabila dini, so'ngra davlat mafkurasiga darajasiga ko'tarilish bosqichlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: zardushtiylik, Avesto, bronza davri, ilk temir davri, Markaziy Osiyo, regulyativ funksiya, integrativ funksiya, din sotsiologiyasi, olovga sig'inish, Jarqo'ton, Gonur, Sintashta–Arkaim, kohinlar, ijtimoiy tabaqalanish, mafkuraviy birlik, Ahuramazda

^a Termiz davlat universiteti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston, Termiz

Аннотация

В статье роль зороастризма в жизни народов Центральной Азии эпохи бронзы и раннего железа анализируется на основе структурно-функционального подхода социологии религии. Автор рассматривает зороастризм не только как религиозно-философское учение, но и как объективную необходимость, регулирующую (регулятивную) общественные отношения и объединяющую (интегративную) различные этнические и территориальные группы в едином идеологическом пространстве. На основе археологических материалов памятников Синташта–Аркаим, Джаркутан, Дашлы, Тоголок и Гонур, а также текстов Авесты обосновывается, что экономическая диспропорция, возникшая вследствие чрезмерного увеличения жертвоприношений, породила необходимость религиозной нормализации обрядов. Сравнительно анализируются схемы периодизации Ш.Шайдуллаева и М.Эсанова.

Ключевые слова: зороастризм, Авеста, эпоха бронзы, ранний железный век, Центральная Азия, регулятивная функция, интегративная функция, социология религии, культ огня, Джаркутан, Гонур, Синташта–Аркаим, жрецы, социальная стратификация, идеологическое единство, Ахурамазда

Abstract

The article analyses the place of Zoroastrianism in the

life of the peoples of Central Asia during the Bronze and Early Iron Ages through the structural-functional approach of the sociology of religion. The author considers Zoroastrianism not merely as a religious and philosophical doctrine, but as an objective necessity that regulated social relations (regulative function) and united diverse ethnic and territorial groups within a single ideological framework (integrative function). Drawing on archaeological evidence from Sintashta–Arkaim, Jarkutan, Dashly, Togolok and Gonur, as well as on the texts of the Avesta, the study argues that the economic imbalance caused by the excessive multiplication of sacrificial rites generated the need to standardise ritual practice. The periodisation schemes proposed by Sh.Shaydullaev and M.Esanov are comparatively examined.

Keywords: Zoroastrianism, Avesta, Bronze Age, Early Iron Age, Central Asia, regulative function, integrative function, sociology of religion, fire cult, Jarkutan, Gonur, Sintashta–Arkaim, priests, social stratification, ideological unity, Ahura Mazda

Kirish. Markaziy Osiyo hududi qadimdan ko'p-lab sivilizatsiyalarning shakllanishi, turli madaniy va diniy tizimlarning rivojlanish maydoni bo'lib kelgan. Xususan, bronza va ilk temir davrida hududlarda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, aholining xo'jalik faoliyati va madaniy muloqot shakllari diniy

e'tiqodlarning ham rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mazkur davrda shakllangan zardushtiylik e'tiqodi nafaqat diniy-falsafiy tizim sifatida, balki jamiyat hayotida regulativ (ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi) va integrativ (turli guruh va hududlarni birlashtiruvchi) zarurat sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Bronza va ilk temir davrida shakllangan diniy marosimlar, qadimgi muqaddas inshootlar – ibodatxonalar, daxmalar va ossuariylar zardushtiylikning dastlabki konseptual asoslarini belgilab beradi. Ushbu jarayon, bir tomondan, ijtimoiy tuzum va xo'jalik tizimining barqarorligini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'naviy qadriyatlar orqali jamiyatning birligiga xizmat qilgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zardushtiylikning dastlabki shakllari va uning ijtimoiy tizimdagi o'rnini bronza va ilk temir davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida murakkab tarixiy jarayonlarni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu masalani o'rganish diniy e'tiqod evolyutsiyasi, uning jamiyatdagi funksiyalari va madaniy integratsiya jarayonlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi – bronza va ilk temir davri Markaziy Osiyo jamiyatida zardushtiylikning regulativ va integrativ funksiyalarini arxeologik hamda yozma manbalar asosida aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini asoslashdan iborat.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi va tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning nazariy asoslarini din sotsiologiyasining klassik yo'nalishi tashkil etadi. E.Dyurkgeym va A.Giddens ishlarida dinning ijtimoiy funksiyalari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lsa, M.Boys tadqiqotlari zardushtiylikning tarixiy-marosimiy jihatlarini yoritadi. Markaziy Osiyo materiallari bo'yicha esa Sh.Shaydullayev va M.Esanovning davrlashtirishga oid ilmiy xulosalari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zardushtiylikning ilk bosqichlarini bevosita ijtimoiy boshqaruv va iqtisodiy me'yorlashtirish ehtiyoji nuqtayi nazaridan tahlil qilish masalasi hozirgacha yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanilgan holda qiyosiy-tarixiy, tizimli-tahliliy hamda arxeologik materiallarni tipologik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida din sotsiologiyasining struktur-funksional yondashuvi qo'llanildi. Yozma manbalar – Avesto matnlari va ahamoniylar davri qoya bitiklari manbashunoslik tahlilidan o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilarni, ya'ni diniy jamoani shu ta'limot doirasida tutib turadi. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchi, ya'ni "integratorlik" vazifasi deb ataladi. Din e'tiqod qiluvchilarning ijtimoiy va ma'naviy hayotiga ta'sir o'tkazadi. Bu esa, dinning dunyo xalqlari madaniyati, adabiyoti, san'ati kabi sohalariga kirib borishi bilan amalga oshiriladi. Diniy urf-odat va marosimlarni jamoa bo'lib bajarilishi ham unga e'tiqod qiluvchilarni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan, yahudiylik. Mazkur din vakillarini bir millat va yagona maslak egalari hamda yagona xudo Yahvening eng sevimli bandalari ekanliklari haqidagi ta'limot

birlashtirib turadi. Xristianlikda esa, bu dinga e'tiqod qiluvchilar bir-birlariga aka-uka – "birodarlar" ekanligi to'g'risidagi g'oya ilgari suriladi. Sotsiologik nuqtayi nazardan qaralganda, din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi (Durkheim, 1995). Din sotsiologiyasida uning jamiyatda bajaragan vazifalariga ko'ra o'rganiladi. Dinning vazifalari deganda, uning alohida shaxs va jamiyatga ta'sir qilish yo'li hamda tabiati nazarda tutiladi (Giddens, 2013). Bronza va ilk temir davrlari Markaziy Osiyo xalqlari hayotida zardushtiylik regulativ va integrativ zarurat sifatida vujudga keldi. Jumladan, zardushtiylik dini ham Markaziy Osiyoning bronza va ilk temir davrlarida jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va diniy hayotida muhim regulativ (tartibga soluvchi) va integrativ (birlashtiruvchi) rol o'ynagan. Bu davrda diniy e'tiqodlar va marosimlar jamiyatni boshqarish, ijtimoiy tartibni saqlash va madaniy birlikni ta'minlashda asosiy vosita bo'lgan. Yetuk zardushtiylik dini mutaxassislaridan biri, avestoshunos olimi Meri Boys o'zining "Zardushtiylik: diniy e'tiqodlari va marosimlari" asarida zardushtiylik qadimiy va unga qo'shni hududlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda ijtimoiy barqarorlik va axloqiy nazoratni ta'minlovchi diniy-falsafiy tizim sifatida muhim rol o'ynaganligini ta'kidlaydi (Бойс, 1988). Uning fikricha, zardushtiylik dini chorvador aholi o'rtasida paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qabilaviy jamiyatlarda nihoyatda muhim axloqiy-ijtimoiy tartibni yaratgan. Chunki dinning asosiy ta'limoti insonni to'g'ri fikrlash, to'g'ri gapirish va amallarning sof bo'lishiga undagan. Shu bilan birgalikda, jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar o'rniga birlashuv, ya'ni integrativ, shuningdek, tenglik va mehr-oqibat (regulativ) tamoyillarni ilgari surgan (Boyce, 1979, p. 18). Haqiqatdan ham zardushtiylik qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida, ayniqsa, o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan odamlarning ehtiyojlariga javob beruvchi murakkab axloqiy-diniy tizim sifatida xizmat qilgan. Ushbu din orqali tabiatga ehtirom, ijtimoiy birdamlik, tenglik asosida yagona tangriga ibodat qilish va mafkuraviy asosda birlashtirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Har biri o'z qavmlarining turmush tarzini boshqarish, tartibga solish, nazorat qilish, ya'ni regulatorlik vazifasini bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarining marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi. Zardushtiylik dini bronza davrining yakuniy bosqichlari va ilk temir davrlarida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida chuqur ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb eta boshlagan. Dastlab ushbu diniy e'tiqodning ildizlari cho'l hududlarida yashagan ko'chmanchi jamoalarning hayot tarziga bog'liq holda shakllangan bo'lib, uning ilk g'oyalari shu jamoalarda vujudga kelgan. Zardushtiylikning diniy-falsafiy qarashlari vaqt o'tishi bilan o'troq dehqonchilik jamiyatlari ehtiyojlariga moslashib, rasmiy diniy tizim shaklida namoyon bo'la boshlagan. Ushbu evolyutsion jarayon

Arkaim va Sintashta (ko'plab tadqiqotchilar bu madaniyatlarni zardushtiylik e'tiqodining ilk arxaiik bosqichi bilan bog'laydi), Jarqo'ton, Dashtli, Togolok va Gonur kabi madaniyatlarning arxeologik manbalarida o'z ifodasini topgan; diniy g'oyalar jamiyat hayotining regulativ vositasi sifatida asta-sekinlik bilan shakllanib borgan (Эсанов, 2013, с. 78).

Bu madaniyatlarning dafn marosimlari, muqaddas olovga sig'inish, muayyan ijtimoiy qoidalarining joriy etilishi diniy tamoyillarning faqat ruhiy-ma'naviy emas, balki ijtimoiy boshqaruvda ham faol vosita bo'lganligini tasdiqlaydi. Zardushtiylikning ayni davrdagi tarqalishi jamiyatda integratsion zaruriyatni ham amalga oshirgan. Masalan, turli qabila va elatlar o'rtasida mafkuraviy birlikni ta'minlovchi omil sifatida bu e'tiqod yagona axloqiy-me'yoriy tizimni shakllantirishga xizmat qilgan. Avestoda tilga olingan mamlakatlarning moddiy va ma'naviy asoslari ayni shu diniy-falsafiy birlik zaminida qaror topgan. Natijada zardushtiylik dini Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ijtimoiy tizimida regulativ va integrativ zarurat sifatida muhim rol o'ynagan. Shimoliy Baxtriya va Marg'iyona hududlaridan topilgan arxeologik manbalar bronza davrida insoniyat tarixida muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatadi. Dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi natijasida qadimdan o'ziga xos etnomadaniy qatlamga ega bo'lgan jamoalarda ijtimoiy va madaniy differentsiallashtirish jarayoni boshlangan. Shunday qilib, zardushtiylikning ilk shakllanish jarayonini ibtidoiy jamoa tuzumining ichki ehtiyojlari, iqtisodiy faollikning ortishi va moddiy madaniyatning boyishi bilan bog'lash mumkin. Bu esa, diniy e'tiqodlarning jamiyatdagi regulativ va integrativ funksiyalarini kuchaytirgan omil sifatida baholanishi lozim. Shuning uchun ham Avestoda keltirilgan g'oyalar, ya'ni boylikning asosiy belgisi chorva bilan belgilanganligi, din dastlab chorvadorlar orasida paydo bo'lganligidan dalolatdir (Хрестоматия по истории Древнего Востока, 1980, с. 8–11). Bronza va ilk temir davrlarida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida olovga sig'inish yaqqol ko'zga tashlanishini arxeologik materiallarda ko'rish mumkin. O'sha davr o'troq va yarimko'chmanchi jamoalarda olov tabiatining muqaddas unsuri sifatida e'zozlangan bo'lib, unga bag'ishlab turli marosimlar o'tkazilgan. Ayni vaqtda bu marosimlar, ko'pincha, urug' va qabila xudolari sharafiga qurbonlik qilish munosabati bilan bo'lgan. Qurbonliklar haddan tashqari oshib ketishi esa, jamiyatda isrofgarchilik, iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy nomutanosiblik holatlarini yuzaga keltirgan. Mazkur holat diniy e'tiqodlarning, bugungi zamonaviy til bilan aytganda, ichki normativ mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni, ya'ni marosimlarni me'yorlashtirish va diniy tartib-qoidalarini isloh qilish zaruratini keltirib chiqargan. Bu, o'z navbatida, zardushtiylik diniy tizimining shakllanishida uni jamiyat ichidagi regulativ vosita sifatida zarur qilgan asosiy omillardan biri bo'ldi. Zardusht aynan mana shu tarixiy jarayonni amalga oshirishda, o'z fikrining sofliqi, to'g'riso'zligi va amalidagi sobitligi bilan jamiyatni isloh qilishni boshladi. Na-

tijada bu e'tiqod tizimi faqatgina diniy marosimlarning emas, balki butun jamoaviy hayotning ijtimoiy va iqtisodiy masalalarini tartibga soluvchi regulativ omil sifatida shakllandi. Shu bilan birga, zardushtiylik diniy mafkurasi turli ijtimoiy guruh va qabilalarni yagona e'tiqod tizimi ostida birlashtirib, jamiyatning integratsiyasini ta'minlovchi kuchga aylangan. Zardushtiylik dinining tartibga solinishi masalasida siyosiy jihatlariga e'tibor qilsak, ahamoniylar imperiyasi arafasida bu zarurat kun tartibiga chiqib, tarixiy shaxs Zardusht otashparastlik diniy qarashlarining bosh islohotchisi sifatida faoliyat olib bordi. Ammo Eron hududida vujudga kelgan ahamoniylar davlati hukmdorlari davlatni mustahkamlashda Zardusht g'oyalaridan ustalik bilan foydalandi va o'zlarini Ahuramazda tomonidan berilgan hokimiyat egalari sifatida ko'rsatdilar. Shunga qaramay, ahamoniylarning moddiy yozma yodgorliklari hisoblangan Behistun, Naqshi Rostam va Suzadagi devoriy qoya yozuvlarida Zardusht nomi tilga olinmagan, balki hokimiyat to'g'ridan-to'g'ri Ahuramazda tomonidan ahamoniylar shohlarga in'om etilgani ta'kidlanadi (Маковельский, 1960, с. 45). Zardushtiylik dinining dastlabki ko'rinishlari avvalo oilaviy, keyinchalik urug' va qabila dini darajasiga o'sib chiqdi. Ma'lum bir tizim asosida rivojlanib borishi natijasida u muayyan tartibga kirdi va dinning rahnamolari, ya'ni koinlar paydo bo'ldi. Koinlar dastlabki davrda ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatni o'z qo'llarida birlashtirgan bo'lib, davlat darajasidagi diniy tizimni shakllantirishga harakat qilganlar. Zardushtiylik dinining rivojlanish masalasiga e'tibor qilsak, prof. Sh.Shaydullayev zardushtiylik dinining rivojlanish bosqichlarini Qadimgi Baxtriya yodgorliklari misolida quyidagi turlarga bo'lgan edi: ilk zardushtiylik davri (Jarqo'ton, Togolok, Dashtli misolida); ikkinchi davr – miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan ahamoniylargacha bo'lgan davr, ya'ni Zardusht davri; uchinchi davr – ahamoniylar davri zardushtiyliqi; to'rtinchi davr esa sosoniylar zardushtiyliqi (Шайдуллаев, 2001, с. 26–27). Yana bir tadqiqotchi M.Esanov "Avesto jamiyatining arxeologik materiallarida aks etishi" nomli dissertatsiyasida zardushtiylik dini ta'limotini arxeologik va yozma manbalarga asoslanib, quyidagi 4 bosqichga bo'lgan:

0.1 Protozardushtiylik bosqichi (miloddan avvalgi III ming yillik ikkinchi yarmi – 1500–1200-yillar)

0.2 Zardushtiylik rasmiy din sifatida shakllangan davri (miloddan avvalgi 1200–700-yillar)

3. Zardushtiylik dinining gullab-yashnagan davri (miloddan avvalgi VII asr ikkinchi yarmidan to arablar bosqiniga qadar).

4. Zardushtiylik dinining islom dini bilan aralashuvi va modernizatsiyasi (VIII asrdan keyingi yuz yilliklar) (Эсанов, 2007, с. 87).

Zardushtiylik dini tarixining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda Sh.Shaydullayev va M.Esanov tomonidan keltirilgan ilmiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Har ikkala tadqiqotchi ham diniy ta'limotlarning tarixiy shakllanishini va ijtimoiy funksiyalarini belgilashda o'ziga xos metodologiyalarni

qo'llashgan. Xususan, Sh.Shaydullayev tomonidan taqdim etilgan bosqichlar zardushtiylikning siyosiy va diniy evolyutsiyasiga asoslangan. Uning fikriga ko'ra, zardushtiylik dinining ilk bosqichi, ya'ni ilk zardushtiylik davri, Jarqo'ton, Togolok va Dashtli kabi arxeologik yodgorliklar orqali tasvirlangan. Bu davrda zardushtiylik dini to'liq shakllanmagan bo'lib, u ko'chmanchi guruhlar orasida paydo bo'lgan diniy-tasavvufiy qarashdan iborat edi. Keyingi bosqich – mil. avv. I ming yillik boshlaridan ahamoniylargacha bo'lgan davrni Zardusht davri sifatida tasvirlab, uning diniy tamoyillarining shakllanishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, ahamoniylar davri va sosoniylar davri zardushtiylikning davlat dini sifatida rivojlanishi va jamiyatni birlashtirish masalasi yuqori bo'lgan jihatlariga e'tibor qaratgan. M.Esanov esa, arxeologik va yozma manbalar asosida bosqichlarni tarixiy-falsafiy va ijtimoiy funksiyalariga qarab ajratadi.

Zardushtiylikning regulativ vazifalariga kelsak, Avestoga muvofiq jamiyat to'rt bo'g'inli tashkilot tizimidan iborat bo'lgan, ya'ni uy-oila quyi bo'g'in bo'lgan, qolgan bo'g'inlarni urug', ovul, qishloq jamoasi, qabila, viloyat va oxirida davlat tashkil qilgan. Uy-oilaga uy egasi, urug'ga oqsoqol, qabilaga uning boshlig'i boshchilik qilgan. Mihr Yashtdan o'rin olgan oliy yo'l boshchisi, oila yo'l boshchisi, qabila yo'l boshchisi haqidagi ko'rsatmalar xarakterlidir (Yasht, X 17–19, 87, 115; Yasht, XIV, I) («Avesto», 2001, c. 67). Avesto jamiyati to'rt tabaqani belgilaydi: kohinlar, jangchilar, chorvadorlar/dehqonlar hamda hunarmandlar. Ba'zi sharqshunos olimlarning Avestoda faqat dastlabki uch tabaqa ko'rsatilganligi haqidagi fikrlari bahslidir. Manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Avesto jamiyatida qullar ham tilga olingan, ammo ular mustaqil bir tabaqaga ajratilmagan («Avesto», 2001).

Zardushtiylikning asosiy integratsion xususiyatlaridan biri, jamiyat hayotida barqaror markazlashgan boshqaruv tizimini shakllantirish hamda yirik siyosiy birlashmalarni vujudga keltirishga bo'lgan qat'iy intilishdir. Bu tamoyil diniy aqidalar bilan ijtimoiy-siyosiy maqsadlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllangan bo'lib, kuchli hokimiyatni barpo etish, tarqoq vohalar va alohida jamoalarni yagona davlat tuzilmasiga birlashtirish g'oyasini ifodalaydi. Natijada, zardushtiylik faqat e'tiqod tizimi sifatida emas, balki davlat boshqaruvi, hududiy yaxlitlik va jamiyatning ichki birlik tamoyillarini mustahkamlashda ham hal qiluvchi tarixiy omil bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan, mazkur din Markaziy Osiyo xalqlari tarixida siyosiy barqarorlik, ijtimoiy uyg'unlik va madaniy integratsiyaning muhim ideologik asosiga aylangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) birinchi marta zardushtiylikning bronza va ilk temir davridagi ilk bosqichlari din sotsiologiyasining struktur-funksional nazariyasi (E.Dyurkgeym, A.Giddens) asosida tahlil qilinib, uning regulativ va integrativ funksiyalari yaxlit tizim sifatida asoslandi;

2) qurbonlik marosimlarining haddan ortiqcha

ko'payishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy isrofgarchilik va ijtimoiy nomutanosiblik diniy me'yorlashtirish zaruratini keltirib chiqargani ilmiy muomalaga kiritildi — ya'ni zardushtiylik islohotining iqtisodiy ildizi ochib berildi;

3) zardushtiylikning regulativ va integrativ funksiyalari o'zaro parallel emas, balki ketma-ket bog'langan bosqichlar sifatida, ya'ni marosimlarni me'yorlashtirish (regulyatsiya) natijasida mafkuraviy birlik (integratsiya) yuzaga kelgani ko'rsatildi;

4) Sh.Shaydullayev va M.Esanovning davrlashtirish tizimlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning metodologik asoslari — biriniki siyosiy-diniy evolyutsiyaga, ikkinchisniki arxeologik-manbashunoslik mezoniga tayanishi aniqlandi;

5) Avesto ma'lumotlari asosida bronza va ilk temir davri jamiyatining to'rt bo'g'inli boshqaruv tuzilmasi va to'rt tabaqali ijtimoiy stratifikatsiyasi zardushtiylikning regulativ funksiyasining amaliy ifodasi sifatida talqin etildi.

Xulosa. Bronza va ilk temir davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida zardushtiylik tasodifiy diniy hodisa emas, balki jamiyatning ichki ehtiyojidan kelib chiqqan obyektiv zarurat sifatida shakllangan. Dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va mulkiy tabaqalanishning kuchayishi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona me'yoriy tizimga bo'lgan talabni yuzaga keltirdi. Zardushtiylikning regulativ funksiyasi, birinchi navbatda, marosimlarni me'yorlashtirish, qurbonliklarni cheklash, mehnat va mulk munosabatlarini axloqiy mezonlar bilan bog'lash hamda “ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” tamoyili orqali shaxsiy xulqni nazorat qilishda namoyon bo'ldi. Avesto ma'lumotlaridagi to'rt bo'g'inli boshqaruv tizimi va to'rt tabaqali ijtimoiy tuzilma esa mazkur funksiyaning institutsional ifodasi hisoblanadi. Integrativ funksiya esa turli etnik va hududiy jamoalarni yagona mafkuraviy maydonda birlashtirish, tarqoq vohalarni markazlashgan siyosiy tuzilmaga jalb etish orqali amalga oshdi. Ushbu ikki funksiya bir-birini taqozo etadi: marosimiy tartibning me'yorlashtirilishi umumiy e'tiqod maydonini vujudga keltirgan bo'lsa, umumiy e'tiqod maydoni o'z navbatida me'yornlarning barqarorligini ta'minlagan. Sintashta-Arkaim, Jarqo'ton, Dashtli, Togolok va Gonur yodgorliklarining arxeologik materiallari — ibodatxonalar, olov mehroblari, daxma va ossuariylar — zardushtiylikning oilaviy e'tiqoddan urug'-qabila diniga, so'ngra davlat mafkurasiga aylanish bosqichlarini moddiy jihatdan tasdiqlaydi. Shu bois zardushtiylikni Markaziy Osiyo davlatchiligidan ilk mafkuraviy asoslaridan biri sifatida baholash o'rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Avesta. Yasht kitobi (The Avesta. The Book of Yashts) / M. Is'hoqov tarjimai (trans. by M. Is'hoqov). Tashkent: “Sharq” Publ., 2001. 126 p. (in Uzbek).
- [2] Boyce, M. 1979. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. London: Routledge & Kegan Paul. 252 p. (in English).
- [3] Boyce, M. 1988. Zoroastriitsy: verovaniia i obychai

(Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices). Translated from English. Moscow: "Nauka" Publ. 303 p. (in Russian).

- [4] Durkheim, É. 1995. The Elementary Forms of the Religious Life. New York: Free Press. 464 p. (in English).
- [5] Esanov, M. 2007. "Avesto" jamiyatining arxeologik materi allarda aks etishi (Qadimgi Baqtriya va Marg'iyonaning bronza davri moddiy madaniyat yodgorliklari misolida) ("Avesta" Society in Archaeological Materials: On the Example of the Bronze Age Material Culture Monuments of Ancient Bactria and Margiana). Candidate dissertation in History. Tashkent. 87 p. (in Uzbek).
- [6] Esanov, M. 2013. "Avesto" jamiyatining arxeologik materi allarda aks etishi ("Avesta" Society Reflected in Archaeological Materials). PhD dissertation in History. Tashkent. 78 p. (in Uzbek).
- [7] Giddens, A. 2013. Sociology. Cambridge: Polity Press. 1104 p. (in English).
- [8] Khrestomatiia po istorii Drevnego Vostoka. Ch. 2 (Reader on the History of the Ancient East. Part 2). Moscow: "Vysshaya shkola" Publ., 1980, 8–11 (in Russian).
- [9] Makovel'skii, A.O. 1960. Avesta (Avesta). Baku: Publishing House of the Academy of Sciences of the Azerbaijan SSR. 144 p. (in Russian).
- [10] Shaydullayev, Sh. 2001. O'rta Osiyoda zardushtiylikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (The emergence and stages of development of Zoroastrianism in Central Asia). In "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni (The Avesta and Its Role in Human Development). Tashkent–Urgench, 26–27 (in Uzbek).